



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

THE IMAGE OF THE HOMELAND IN THE POEMS OF MUHAMMAD YUSUF

Usarova Laylo¹

Jo'rayeva Kamola²

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

KEYWORDS

poetry, homeland, life,
people, poet, birth, talent,
ability

ABSTRACT

This article provides information about the life and work of Muhammad Yusuf, the image of the homeland in his poems, and the importance of these poems today.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.10395851](https://doi.org/10.5281/zenodo.10395851)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

² Student of Uzbek language and literature, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDAGI VATAN TASVIRI

KALIT SO'ZLAR/**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

she'r, vatan, hayot, xalq,
shoir, tug'ma, iste'dod,
qobiliyat, she'riyat

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Muhammad Yusuf hayoti va ijodi, she'rlaridagi vatan tasviri, bu she'rlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berildi.

Xalqimizning sevimli shoiri bo'lmish Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari Ishida erka dilbandi bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x-shaddod yigit bo'lib juda ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning qalbida bувijonisi Tursunxon ena uyg'otgan edi. Muhammad Yusuf garchi dehqon oilasida tug'ilgan bo'lsada keyinchalik katta muvaffaqiyatlarga erishadi. U o'rta mакtabni a'lo baholarga tugatib Reshetov nomidagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi. 1978-1980-yillar oralig'ida harbiy xizmatni o'taydi va bu davrlar shoir uchun juda mashaqqatli davr bo'ladi. Muhammad Yusufning birinchi kitobi 1985-yilda "Tanish teraklar" nomi bilan nashrdan chiqadi. Shundan so'ng Muhammad Yusufning ijodiy faoliyati boshlanib ketadi. U qisqa muddat Ichida xalq ko'ngidan katta joy egallaydi. Uning she'rlari o'qish uchun juda qulay hisoblangan. Bundan tashqari Muhammad Yusuf xalq tilidan so'zlagan. Uning qisqa she'rlarida ham juda katta ma'no ifodalangan.

Garchi Muhammad Yusuf she'rlarida sodda so'zlardan foydalangan bo'lsada, uning mazmun- mohiyati juda ham boy, katta ma'noni ifodalab bergen. Uning "Iltijo", "Bulbulga bir gapim bor", "Ko'ngilda bir yor", "Ishq kemasi", "Halima enam allalari", "Yolg'onchi yor", "Osmonimga olib ketaman", "Erka kiyik", "O'zingdan qo'ymasin xalqim", "Saylanma", "Ulug'imsan Vatanim" kabi juda ko'plab kitoblari chop etildi. Katta iste'dod egasi hisoblanmish Muhammad Yusuf xalqimizning dard-u alamlari, orzu-umidlari, quvonch-u iztiroblarini o'z she'rlarida aks ettirgan. Shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf she'rlarining san'atkorlar ijodida ham o'rni beqiyosdir. Chunki Muhammad Yusufning deyarli barcha she'rlari o'zbek san'atkorlari tomonidan qo'shiq qilib kuylangan va hozirgacha bu qo'shiqlar ijro etilib keladi.

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusufning Vatan uchun qilgan xizmatlari o'z qadrini topdi. Uning qilgan buyuk xizmatlari uchun 1996-yil "Do'stlik" ordeni, 1998-yil "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvonlariga sazovor bo'ladi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan ko'z yumdi. Garchi u vafot Ethan bo'lsada, u odamlar yuragida, muxlislari qalbida Mangu yashaydi. Muhammad Yusuf o'zbek xalqining qalbidir! Muhammad Yusufning she'rlariga bir nazar tashlaylik:

O, ota makonim, onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyanga
Senday mehribon yo'q, seningdek ko'rakam,
Rimni alishmasman, bedapoyangga!

Muhammad Yusuf uchun Vatan juda muqaddas oshyon hisoblanadi. U bu she'ri orqali shuni aytmoqchiki, har bir inson Vatani uchun jonini bersa ham kamlik qiladi. Muhammad Yusuf uchun Vatan hammadan ham mehribon hisoblangan, u uchun Vatan hamma narsadan ham chiroyli, hamma narsadan ham go'zal hisoblangan. Shoir yana shuni aytib o'tmoqchiki, sening bir bedapoyangni hattoki Rimga ham alishmayman, demoqchi.Ya'niki, har kim o'z Vatanini, o'z uyini, oilasini muqaddas deb bilishi kerak. Vatanining har bir joyini muqaddas deb hisoblashi, uni asrab-avaylashi kerak. Chunki Vatan faqatgina bizniki emas, balki kelajak avlodniki. Uni asrab-avaylab, uning rivoji uchun qo'lidan kelganicha harakat qilishi va kelajak avlod uchun yetkazishi kerak. Agar biz shu ishlarni amalga oshirsak, Vatan oldidagi burchimizni o'tagan bo'lamiz.

Mendan nima qolar,
Ikki misra she'r.
Ikki sandiq kitob
Bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan nima desa ham
Men seni o'ylayman,
O'zimdan ko'proq.
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq !

Shoir ushbu she'rda ham inson va hayot, ona Vatan tushunchalarini mujassamlashtirgan. Muhammad Yusuf ushbu she'ri orqali bu dunyoda inson zotidan qilgan yaxshi ishlari va yaxshi amallaridan boshqa hech narsa qolmasligini aytib o'tgan.

Muhammad Yusuf bu she'rlari orqali shuni aytib o'tmoqchiki, Vatan dunyoda eng muqaddas oshyon hisoblanadi. Xulosa qilib aytish kerakki hamma inson ham Vatan, ona deyishi mumkin-u, ammo ona yurtini maromiga yetkazib , yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini bila oladigan ijodkorgina haqiqiy shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf Ana shundan xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan shoir hisoblanadi. Uning she'rlaridagi oddly obrazlari, ayni paytdagi munis va qadrdon, tub mohiyati , ya'ni ular timsolida shu ona vatan , muqaddas tuproq , shu vatanning azizligi va mo'tabarligi aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saylanma: She'rlar, Dostonlar, Xotiralar - T: " Sharq", 2007. 288 6
2. Sultonmurodov Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. Adabiyot (darslik).

Toshkent - 2014

3. S.Matchonov, Sh.Sariyev ." Adabiyot", "Abituriyent -- 2011 loyihasi turkumidan"